

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARI.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Pedagogika” fakulteti Maktabgacha ta’lim
yo’nalishi 3-bosqich talabalari
Mamarasulova Muxlisa To’ra qizi
Mingto’rayeva Munisa Ma’rufjon qizi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalari, kompetensiyaviy yondashish asosida maktabgacha yoshdagi bolalar fikrlash faolligini rivojlantirish masalalari keltirilgan. Shu bilan birgalikda maktabgacha yoshdagi bolalarga kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantiruvchi markazlarda ta’limiy faoliyatlarni tashkil etish to’g’risida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Kompetensiyaviy yondashuv, bola, kompetensiya, rivojlantiruvchi markazlar, tayanch kompetensiya, komunikativ, bilish, idrok, sezgi, ijtimoiy, shaxsiy

ОСНОВНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.

Аннотация. В статье представлены базовые компетенции дошкольников, вопросы развития мыслительной деятельности дошкольников на основе компетентностного подхода. При этом ведутся разговоры об организации образовательной деятельности в центрах развития дошкольников на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: Компетентностный подход, ребенок, компетентность, центры развития, базовая компетентность, коммуникативная, познавательная, восприятие, интуиция, социальная,

личностная.

BASIC COMPETENCES OF PRESCHOOL CHILDREN.

Abstract. *The article presents basic competencies in preschool children, issues of development of thinking activity of preschool children based on the competence approach. At the same time, it is mentioned about the organization of educational activities in centers that develop preschool children based on a competency approach.*

Keywords: *Competency approach, child, competence, developmental centers, basic competence, communicative, knowledge, perception, intuition, social, personal.*

KIRISH. Maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligiga erishishda bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo'sh vaqtlardan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o'tkazilgan mashg'ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadga muvofiq jarayondir. Buning uchun esa Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv muhim masala hisoblanadi. Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv deganda bolalarni ta'lim tashkilotlarida egallagan bilimlari orqali kundalik hayotda duch keladigan tanish yoki notanish vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashni tushunish demakdir Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, ahloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda "men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti

binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki innovatsion bo'lishi lozimligini talab etadi. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o'ynab turib o'ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o'yinlarda aks ettiruvchi ta'limiy rivojlantiruvchi o'yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta'lim mazmunini oshiradi

Kompetensiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kompetensiyalar – bu ko'p yo'nalishli tushuncha bo'lib, u maktabgacha ta'lim bo'g'inida bolaning muvaffaqiyatli o'qishi va rivojlanishini, shuningdek, uning boshlang'ich maktabning 1-sinfida o'qishi davomidagi muvffaqiyatini shartlaydigan bilim, mahorat, ko'nikma, qadriyatli yo'l-yo'riqlar va xulq-atvor ko'nikmalarining jamlanmasini namoyon qiladi.

Kompetensiyalarning tarkibiy elementlari

Bilim – bu kishida mavjud bo'lgan axborotlar hajmidir. Pedagogikada bilim – bu borliqni o'rganish faoliyati jarayonining natijasi bo'lib, u mos holdagi inson ongida tasavur, tushuncha, fikr shakllarida ifodalanadi.

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Maktabgacha yoshdagi bolada tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish (maktabgacha yoshdagi 6-7 yosh) mazmuni:

Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilish doirasini (boshqa guruh tarbiyachisi, mudira, uslubchi, psixolog, mehmonlar, tengdoshlarining ota- onasi) kengaytirish.

Bolaga o'z ixtiyori bilan salomlashish, kattalarning savollariga javob berish, minnatdorchilik bildirish, kattalarga murojaat qilishning turli usullaridan foydalanishni o'rgatishni davom ettirish.

Odamlar bilan muloqot qilishda, suhbat va munozaralarda o'z fikrini ayta olish qobiliyatini shakllantirish. Mustaqil holda “Assalomu-alaykum”, “Marhamat”, “Rahmat”, “Iltimos”, “Xayr”, “Ko'rishguncha”, “Sog' bo'ling” kabi iltifotli so'zlarni, boshqalarga nisbatan “balli”, “yasha” kabi olqishlarni ayta olishga odatlantirish.

Bolaga atrofdagilarni hurmat qilish muhimligini tushuntirish, oila a'zolari va ularning vazifalarini bilishga ko'maklashish, oila a'zolariga yordam berishga o'rgatish, zaruratga qarab yordam so'rab murojaat etishini rag'batlantirish. Bayram va tadbirlarda yaqin insonlarini so'z orqali tabriklashga o'rgatish.

O'yin kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni:

-Bolaning tasavvuri, tafakkuri hamda ijodiy layoqatini turli o'yinlar orqali shakllantirish, tashabbus, faollik va mustaqillikni rivojlantirish. Turli o'yinlar tashkil etish, o'yinlarda voqealar, hayotiy vaziyatlar, kattalar mehnatiga taqlid qilishni o'rgatish.

Bolada turli ta'limiy o'yinlarni tashkil etish, yetakchilik rolini bajarish malakasini rivojlantirish. Ta'limiy o'yin jarayonida tengdoshlari bilan hamkorlikda xarita va sxemalarni tanlash tartibi haqida kelishib olishga, o'z harakatlarini boshqa o'yin ishtirokchilari harakatlaribilan muvoffiqlashtirishga o'rgatish. O'yinda topqirlik, ziyraklik, sabr-toqatlilik, do'stlik, o'zaro yordam, vazifani mustaqil va maromiga yetkazib bajarish malakasini rivojlantirish. Bolani ayrim ta'limiy o'yinlarni o'ylab topishga jalb qilish. Sensor qobiliyatlarni rivojlantirish va mustahkamlash. O'yinda maktabga tayyorgarlik uchun zarur bo'lgan sifatlarning, ya'ni mantiqiy fikrlash, xayoliy tasavvur, tafakkur faolligi, fikrlarini erkin aytilish, savollarga to'liq javob berish kabilarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga yordam berish.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki maktabgacha ta'lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U ta'limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Misol uchun kommunikativ kompetensiyani aytadigan bo'lsak nafaqat bola hayoti uchun balki kattalar hayotida ham muhim hisoblanadi. Inson muloqotga kirishmas ekan ijtimoiylasha olmaydi. Bilish kompetensiyani esa bu insonni komolotga yetaklaydi. Shunday ekan bolaga ta'lim berishda tayanch kompetensiyalarini doimo e'tiborda olish va rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-son qarori.
2. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv

dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/". Toshkent, 2022-y.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 391-sonli qarori.

4. Maktabgacha ta'lim vazirining 2021-yil 12-iyuldagi "Maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida" 128-sonli buyrug'i

5. Valiyeva F.R. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi didaktik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati // Multi disciplinary research studies and education, Kuala Lumpur, Malasiya 2021

6. Kalmuratov T.N. Xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'lim sifatini boshqarishning o'ziga xos jihatlari. Ilim hám jamiyet. №4.2021. Bet 30-33. 3-bet

